XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 13 - noyabr VI-46-71-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

Izboskan tumani hududida “Hokimlik bogi” tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonida hududlarda “Hokimlik boglari”ni tashkil etish vazifa qilib belgilangan.

Izboskan tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bo‘limi va tuman Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi tomonidan tumanning Yuqori MFY hududida joylashgan Lo‘g‘umbek istirohat bog‘idan 0.5 gektar yer maydonida “Hokimlik bog‘i” tashkil etish bo‘yicha berilgan taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonida berilgan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Izboskan tumani Kengash

QAROR QILADI:

1.Izboskan tuman qurilish va uy-joy kommunal bo‘limi va tuman Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasining “Hokimlik bog‘i” tashkil etish bo‘yicha bergan taklifi inobatga olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonida berilgan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida Yuqori MFY hududida joylashgan Lo‘g‘umbek istirohat bog‘idan 0.5 gektar yer maydonida “Hokimlik bog‘i” tashkil etilsin.

3. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bo‘limi, Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali, tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi, tuman Irrigatsiya bo‘limi raxbarlari va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda “Hokimlik bog‘i” tashkil etish uchun tanlangan yer maydoni o‘rni hamda chizma o‘lchamini belgilash, sug‘orish tizimi, ekiladigan mavjud mahalliy ko‘chat turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa takliflarni taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4.Tuman qurilish bo‘limi hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda “Hokimlik bog‘i” hududiga daraxt ko‘chatlarini ekish ishlarini tashkil etsin.

5. Izboskan tumani Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi (S.Abdullayev)ga tashkil etilgan “Hokimlik bog‘i” hududidagi har bir daraxtlarni shikastlantirish va nobud qilganligi uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifalari yuklatilsin.

6.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman qurilish bo‘limi hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

7.Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **S.Ismoilov**